



65. Qo'shish va ayirish operatsiyalari, ularning bog'liqligi

Yondosh mavzu:
tabiatshunoslik

Amallar, operatsiyalar
ifodalar va ularning qiymatlari



Shunday massali shaklni toping



1. Nima uchun penoplast kubik suvga cho'kmaydi, lekin shunday o'lchamdagi temir kubik suvga cho'kadi? Bu nimaga bog'liq?

A $(37 + 45) - (38 + 19)$

M $(765 - 734) + (420 - 376)$

S $(300 - 254) - (20 + 17)$

25

75	25	9	9	25

Ko'pincha amallar bir nechta qo'shish va ayirish operatsiyalaridan iborat bo'ladi. Agar bu amallar kerakli belgilardan foydalanib yozilsa, ifoda hosil bo'ladi.

Qavssiz sonli ifoda: $34 + 25 - 17$.

Qavsli sonli ifoda: $78 - (26 - 17)$.

Ifodani hisoblashdan hosil bo'lgan natija ifodaning qiymati deyiladi.

2. Amallarni bajaring va sxema bo'yicha ifoda yozing:

$469 + 238$

$570 - 375$



3. Bitta taxtaning uzunligi 45 dm va kengligi 12 dm. Xuddi shunday massali ikkinchi taxtaning uzunligi 34 dm va kengligi 27 dm. Qaysi taxtaning perimetri katta va qancha katta?

65. Qo'shish va ayirish operatsiyalari, ularning bog'liqligi



4. Masalaga doir tenglama yozing va uni yeching.
Tarozining bir pallasiga qumli qop va massasi 270 kg bo'lgan yuk qo'yildi, ikkinchi pallasiga ukkita 100 kg massali, bitta 50 kg massali va uchta 10 kg massali toshlar qo'yildi. Agar tarozi muvozanatda bo'lsa, qopning massasi nimaga teng?



5. Qulay usulda hisoblang:
 $(36 + 27) + 24$ $42 + (37 + 58)$ $220 + 34 + 80 + 66$



6. Qaysi ifodalar teng qiymatlar hosil qiladi? Bu ifodalar qanday ataladi?

$$432 - 341$$

$$32 + 78$$

$$228 - 128$$

$$11 + 89$$

$$109 - 19$$

$$187 - 87$$

$$24 + 76$$

$$64 + 36$$

$$55 + 54$$

$$420 - 305$$



7. Zanjirda   shaklni  shaklga almashtiring. Daftaringizga chizing, nima hosil bo'ldi?



8. O'simliklarni sug'orish uchun bochkaga 600 litr suv quyildi. Birinchi kun bochkadan 235 litr, ikkinchi kun 17 litr ko'proq suv olindi. Bochkada qancha suv qoldi?



9. Sxema bo'yicha ifoda yozing va uning qiymatini toping:

287

+

447

-

338

463

+

219

849

-